



UDK: 159.91:7.01

Xolida SALAXIDINOVA,

PhD, Qo'qon universiteti Andijon filiali dotsenti, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi (DSc)

E-mail: xolidasalaxidinova@gmail.com.

Orcid: 0009-0000-6260-7439

O'zMU professori X.Ruhiyeva taqrizi ostida

## PSYCHOLOGICAL BASIS OF NEUROESTHETIC APPROACH

Annotation

This article analyzes the psychological foundations of the neuroaesthetic approach and its role in personality transformation, in particular in the context of developing cognitive interests of preschool children. The influence of national aesthetic stimuli on the Uzbek mentality and cognitive processes is substantiated from a neuropsychological point of view. The article covers the motivational areas of visual activity, the interrelationship of the "familiarity effect" and neuroplastic phenomena in the creative process. The stages of the formation of interest in depiction in children and the importance of external environmental factors are also scientifically revealed.

**Keywords:** neuroaesthetics, cognitive interest, visual perception, personality transformation, motivation, national aesthetics, preschool children, neuroplasticity, Semir Zeki, creative activity.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ НЕЙРОЭСТЕТИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация

В данной статье анализируются психологические основы нейроэстетического подхода и его роль в трансформации личности, в частности, в контексте развития познавательных интересов детей дошкольного возраста. Влияние национальных эстетических стимулов на узбекский менталитет и познавательные процессы обосновывается с нейropsychологической точки зрения. В статье рассматриваются мотивационные области зрительной активности, взаимосвязь «эффекта знакомства» и нейропластических явлений в творческом процессе. Также научно раскрываются этапы формирования интереса к изображению у детей и важность внешних факторов окружающей среды.

**Ключевые слова:** нейроэстетика, познавательный интерес, зрительное восприятие, трансформация личности, мотивация, национальная эстетика, дети дошкольного возраста, нейропластичность, Семир Зеки, творческая деятельность.

## NEUROESTHETIC YONDASHUVNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Аннотация

Ushbu maqolada neuroestetik yondashuvning psixologik asoslari va uning shaxs transformatsiyasidagi roli, xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish kontekstida tahlil qilinadi. Milliy estetik stimullarning o'zbek mentaliteti va kognitiv jarayonlariga ta'sirini neyropsixologik nuqtai nazardan asoslab bergan. Maqolada vizual faoliyatning motivatsion sohalari, ijodiy jarayonda "tanishlik effekti" va neuroplastik hodisalarining o'zaro aloqadorligi yoritilgan. Shuningdek, bolalarda tasvirlashga bo'lgan qiziqishni shakllantirishning bosqichlari va tashqi muhit omillarining ahamiyati ilmiy jihatdan ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** neuroestetika, kognitiv qiziqish, vizual idrok, shaxs transformatsiyasi, motivatsiya, milliy estetika, maktabgacha yoshdagi bolalar, neuroplastiklik, Semir Zeki, ijodiy faoliyat.

**Kirish.** Bugungi kunda insoniyat axborot yuklamasi va surunkali stress sharoitida yashamoqda. Aynan shu sababga ko'ra klassik psixoterapiya usullari bilan bir qatorda, san'at va estetikaning kognitiv samaradorligini o'rganish zarurati tug'ilmog'ida. Neuroestetika - Semir Zeki tomonidan asos solingan psixologiyaning ushbu sohasi go'zallikni idrok etishning biologik asoslarini o'rganadi. Xo'sh, san'at asari yoki estetik ob'ekt qanday qilib shaxsning dunyoqarashini va ichki "Men"ini tubdan o'zgartira oladi? Aynan butun dunyo uchun qiziq bo'layotgan neuroestetika o'zbek psixologiyasida ahamiyatlimi?

O'zbekiston sharoitida shaxs transformatsiyasi nafaqat individual, balki xalqona madaniyat bilan ham bog'liq. Milliy naqshlar, maqom san'ati va me'morchilikning inson miyasiga ta'sirini neuroestetik tahlil qilish - milliy psixologiyaning yangi qirralarini ochib berishi mumkin[1].

G'arb psixologiyasida neuroestetika ko'proq individual zavqqa yo'naltirilgan. Biroq, o'zbek mentalitetida estetika - komil inson konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liq.

Xalq ijodiyoti - naqshlarining vizual diqqatni jamlash hamda meditatif holatga o'tkazishdagi rolini tadqiq qilish dolzarb muammoga aylanib ulgurdi. Bizning farazimizcha, milliy estetik stimullar (masalan, maqom yoki milliy amaliy san'at) o'zbek shaxsi uchun "tanishlik effekti" orqali kognitiv yuklamani kamaytiradi va neuroplastiklikni tezlashtiradi[2].

Neuroestetikaning turli yoshdagi shaxslar transformatsiyasiga ta'sir mexanizmlarini maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishlarini o'rganishdan boshladik. Quyida maktabgacha yoshdagi bolalarning xususiyatlariga to'xtalamiz.

Psixologlar aniqlaganidek, kognitiv qiziqish shaxsning yangi narsalarni o'rganish istagida, ob'ektlarning fazilatlarini, xususiyatlarini, voqelik hodisalarini haqida tushunarsiz narsalarni bilish, ularning mohiyatini o'rganish, aloqalar va munosabatlarni topish istagida namoyon bo'ladi. Kognitiv qiziqishning asosini faol aqliy faoliyat tashkil etishi isbotlangan. Kognitiv qiziqish ta'siri ostida shaxs diqqatni uzoqroq va barqarorroq jamlashga qodir, aqliy yoki amaliy muammolarni hal qilishda mustaqillikni namoyon qiladi[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bugungi kun psixologiya muammolari orasida yetakchi va intensiv ravishda o'rganilayotganlardan biri neuroestetika muammosidir. Ijodkor shaxsni maqsadli rivojlantirish g'oyalari jahonning ko'plab olimlari tomonidan ilgari surilgan. Ijodiy jarayon va ijodning psixologik jihatlari B.G.Ananayev, R.Arnxeym, D.B.Bogoyavlenskiy, M.A.Vollach, J.S.Vigotskiy, J.Gilford, V.N.Drujinin, N.Kagan, A.Yu.Kazirev, A.N.Leontev, A.N.Luk, A.Maslou, S.Mednik, Ya.A.Panomarev, K.Rojers, I.M.Roseta, S.L.Rubinshteyn, R.Stenberg, E.P.Torrens, V.S. Yurkevich va boshqalarning asarlarida yoritilgan[3].

Yuqorida aytilgan asarlarda har xil qarashlarga xayrixohlik, ijtimoiy muhitning ahamiyatiga e'tiborsizlik ko'zga tashlanadi. Ularda insonning oliy darajadagi ijtimoiy mavjudodligi tan olininadi, unga ilmiy-nazariy nuqtai nazardan yondoshiladi, ammo insondagi psixologik, fiziologik va biologik jihatlar, tarkibiy qismlar tabaqalanmasdan, tashqi muhit bosh omil deya uqitiriladi.

Ammo, shaxsdagi tasvirlashga qiziqishlar tashqi muhitdan ko'ra, o'zini-o'zi nomoyon etishga bo'lgan extiyoj ya'ni tashqi omil asosidagi anglanilmagan motivlar asosida rivojlanar ekan[4].

Neuroestetika vizual faoliyat uchun o'zgaruvchan faoliyatga qodir bo'lgan barkamol, ijodiy shaxsni tarbiyalash vazifasini qo'yadi. Va bu vazifani amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, shaxsda ijodkorlik uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish kerak, degan xulosaga keladilar. Shaxsning faoliyatga qiziqishini uyg'otishga yordam beradigan, bunday faoliyatga ijobiy hissiy munosabatni keltirib chiqaradigan bunday usul va usullarga amal qilish kerakligini ta'kidlaydilar.

Psixologlar qiziqish-keyingi faoliyat uchun motiv bo'lishi kerakligini uqitiradilar.

Shaxsni vizual faoliyatga tayyorlash dasturlarini ishlab chiqishda olimlar maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasi sifatida- qiziqishni shakllantirishni ajratib ko'rsatishadi va bu yangi avlod dasturlarida ham o'z aksini topgan.

Olimlar, pedagoglar va psixologlar bola nimagadir qiziqmasa, uning hayotida quvonch keltiradigan ijodiy va hissiy faoliyat yo'qligini ta'kidlaydilar.

Qiziqishning markazida motivlar yotadi. Motiv - bu ehtiyojga javoban harakat qilish uchun turtki bo'lib, bolaning motivatsion sohosi maktabgacha yoshning boshida rivojlana boshlaydi. Biroq, kichik maktabgacha yoshdagi bolaning xatti-harakati hali ham yosh bolalarning xatti-harakatlaridan unchalik farq qilmaydi: u asosan turli sabablar asosidagi situatsion his-tuyg'ular va istaklar ta'siri ostida harakat qiladi[5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bundan kelib chiqib, turg'un motivlarni shakllantirish uchun bunga ijobiy shart-sharoitlar yaratish zarurligi kelib chiqadi. Vizual faoliyat uchun motivatsiyani shakllantirish birinchi navbatda, ushbu faoliyatga qiziqish uyg'otish va uni mustahkamlash kerak. Tarbiyachilar va psixologlar tomonidan tasdiqlanganidek, rasm chizishga qiziqish bolalarda erta yoshda paydo bo'ladi asosiysi, bu qiziqishni qo'llab-quvvatlash, uning mustahkamlanishiga hissa qo'shish, bolalarning qiziquvchanligi, yangi va qiziqarli narsalarni o'rganish istagini so'ndirmaslik kerak.

Vizual faoliyat erta yoshda boshlanadi va maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlanishda davom etadi. Bolalar tasviriy faoliyatining shakllanishida kattalar tomonidan taqdim etilgan materiallar hal qiluvchi rol o'ynashi N.P.Sakulina tadqiqotlarida isbotlangan[6].

Bolalarda rasm chizishga qiziqishning namoyon bo'lishi va rivojlanishi uchun o'z vaqtida sharoitlar yaratilsa, u bolaning o'zini namoyon qilish va rivojlanishining yorqin va unumdor vositasiga aylanadi. Faoliyatning rivojlanishi orqali bolaning o'zi o'sadi, shakllanadi va rivojlanadi.

Tadqiqotchi G.G. Grigoryeva kichik yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyatga bo'lgan qiziqishini shakllanish jarayonini bir necha bosqichli evolyutsion model sifatida talqin etadi.

Dastlabki kognitiv intilish bosqichi: Bunda bola tasviriy ashyolarga nisbatan ongsiz qiziquvchanlik namoyon etadi. Bu davrda ta'lim beruvchining asosiy vazifasi bolaga turli materiallar bilan erkin tajriba o'tkazish imkoniyatini yaratishdan iboratdir.

Ijtimoiy taqlid va kommunikatsiy bosqichi: Bolaning atrofidagi kattalar harakatiga taqlid qilishi orqali rasm chizish jarayoniga mulohot vositasi sifatida qarashi shakllanadi.

Assotsiativ vizuallashuv bosqichi: bola qog'ozda qolgan tasodifiy izlarni real ob'yektlar bilan bog'lay boshlaydi. Bu jarayon avvaldan to'plangan hayotiy tajriba va visual xotira zahirasiga tayanadi.

Mustaqil ijodkorlikning shakllanishi: Bola endi tasodifiy emas, balki aniq maqsadga yo'naltirilgan holda (masalan, nimanidir chizish yoki yasashga qaror qilib) faoliyat boshlaydi.

Obyektiv dunyoni badiiy aks ettirish: bola o'zini qurshab turgan voqelikni tasviriy san'at elementlari orqali ifodalashga intiladi[7].

Psixologik nuqtai nazardan, uchinchi yosh pog'onasiga qadam qo'yg'an bola visual faoliyat orqali o'z ichki dunyosini namoyon etish imkoniyatini angelaydi. Kattalar nazorati ostida elementar texnik usullarni (mo'yqalam yoki plastilin bilan ishlash) o'zlashtirishi bolada o'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi. Ushbu sub'yektiv ishonch tuyg'usi neuroestetik nuqtai nazardan ijodiy impulsning asosi bo'lib xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** V.S.Vigotskiy, N.P.Sakulina va E.A.Flerina kabi olimlar ta'kidlaganidek, maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin motivatsiyasi va tasviriy faoliyatning uyg'unlashuvi "kechinmalar rezonansi"ni keltirib chiqaradi. Ya'ni, bola o'zini hayratga solgan voqelikni rasm chizish orqali "yashab o'tadi". Bu esa nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki kognitiv yuklamani kamaytiruvchi terapevtik va rivojlantiruvchi mexanizm vazifasini o'taydi.

Pedagog va psixologlarning olib brogan turli tadqiqotlari jarayonidan ma'lum bo'lishicha, maktabgacha yoshda vizual faoliyat motivlar majmuasini boshqaradi: materiallarga qiziqish, ayniqsa materiallar yangilangan bo'lsa; tengdoshlar va kattalarga taqlid qilish; ularning faoliyatiga qiziqish va hokazo. Bu barcha motivlar maktabgacha yoshdagi bolaning rasm chizishi uchun rag'batga aylanib, ularning har biri muayyan vaziyatlarda yangilanadi va ba'zida yetakchi o'rinni egallaydi.

Ammo, yetakchi, asosiy motiv asta-sekin bola tasvirlamoqchi bo'lgan narsalar va hodisalarga qiziqish uyg'otib, bu davrda psixologlar va o'qituvchilar (E.A. Flerina, V.S. Vigotskiy, N.P. Sakulina, G.G. Grigorieva va boshqalar) fikriga ko'ra, o'yin motivi va vizual faoliyat birlashtiriladi. Bu "faoliyatning o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan tomonlari bilan yashash", oddiy hayotda bolani hayratda qoldiradigan, qiziqitiradigan, hayratga soladigan narsalar, hodisalarga yana bir bor qaytish zarurati yuzaga keltiradi. Ushbu motivni amalga oshirish jarayonida bola qo'shimcha vositalardan foydalanadi: nutq, o'yin va boshqalar; bu mazmunni oson va hissiy tarzda yetkazadi. Agar bola faoliyatning o'ziga qiziqsa, bunday barqaror motivlar shakllanishi mumkin. Shunday qilib, qiziqish bolaning motivlarini shakllantirish uchun asos bo'lib, u qaysi faoliyatda namoyon bo'lishidan qat'i nazar, kelajakdagi motivatsiya sifatida katta ahamiyatga ega.

Kichik maktabgacha yoshdagi bola yorqin, rang-barang, kutilmagan narsalarga qiziqadi. Va bundan foydalanish kerak, bolada qiziqish yangi, noma'lum narsaga nisbatan tezroq uyg'onadi. Agar bolaning roli faqat atrof-muhit haqida passiv fikr yuritish bilan cheklangan bo'lsa, bunday o'tish sodir bo'lmasligi mumkin. Tajriba bolaning faoliyatdagi biror narsani o'zgartirish, qayta qurish istagiga hissa qo'shadi, bu vizual faoliyatda eng aniq namoyon bo'ladi. Vizual faoliyatda bola tajriba orqali yangi tasvirlar va materiallarni yaratishi mumkin. Bularning barchasi bolalar ijodiyoti, tasavvurini rivojlantirishga yordam beradi. V.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, ijodkorlik qiziqishni rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan universal qobiliyat bo'lib, faoliyatning turli shakllarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiyat xususiyatlarining tadqiqotchilari tomonidan ta'kidlangan oxirgi xususiyat - bu ishtiyoq muhiti va bolalarning taqlid qilishga moyilligidir. Bolalar bog'chasida kattalar, oila a'zolari, tarbiyachilarning muayyan faoliyatga bo'lgan ishtiyoqi bolaning xuddi shu faoliyatga qiziqishiga yordam beradi. Ko'pincha bolalar bog'chasidagi bolalar tarbiyasi bilan bir xil ish tutishlarini kuzatish kerak: tarbiyachi doimo rasm chizadi, haykaltaroshlik qiladi, kesadi, biror narsa yasaydi - va bolalar bunga intiladi, ular bo'yoq, qog'oz, plastilin talab qiladi va tarbiyachi bilan bilan bir xil harakat qiladi; tarbiyachi qo'shiq aytadi, bolalar qo'shiq aytadi, tarbiyachi raqsga tushadi va bolalar raqsga tushadi. Xuddi shu narsa oilalarga ham tegishli.

Tarbiyachilar va ota-onalarning qiziqishlari asosida tabiatidan bolalarda muayyan faoliyat turiga qiziqish shakllanadi. Qiziqishning shakllanishi bolaning muhitiga ham bog'liq: bular,

birinchi navbatda, tarbiyachi guruhda yaratadigan sharoitlar: zarur material, bolalarni tasviriy san'at bilan tanishtirish, to'garak ishlarini olib borish asosida kichik guruhlarda ishlash imkoniyatlari kengaytirilib, kichik guruhlarda, bolalar bilan individual ish, mustaqil badiiy faoliyatni tashkil etish bolaning ushbu faoliyat bilan shug'ullanish istagi asosida shakllantirib borilishi zarur hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy san'atga qiziqishlar shakllanishi ularni har tomonlama rivojlantirishga hizmat qiladi.

O'tkazilgan nazariy va psixologik tahlillar asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi. Estetik idrok shunchaki sub'ektiv zavqlanish jarayoni emas, balki miyaning kognitiv va hissiy tizimlari o'rtasidagi murakkab neyron bog'liqliklar natijasidir. San'at asarlarini idrok etish jarayonida inson miyasida sodir bo'ladigan biokimyoviy o'zgarishlar (dofaminiy) shaxsning psixoemotsional holatini barqarorlashtirishda kuchli instrument bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek milliy amaliy san'ati elementlari, xususan, geometrik naqshlar va maqom musiqasi o'zbek shaxsi uchun nafaqat madaniy meros, balki "tanishlik effekti" (familiarity effect) orqali kognitiv yuklamani kamaytiruvchi va neyroplasticity (miya plastikli)ni rag'batlantiruvchi omildir. Bu milliy mentalitetga xos

bo'lgan komil inson konsepsiyasini shakllantirishda muhim psixologik poydevor bo'la oladi.

**Xulosa va takliflar.** Bolalik davridagi tasviriy faoliyatga bo'lgan kognitiv qiziqish shaxsning kelajakdagi ijodiy salohiyati va intellektual mustaqilligini belgilaydi. Tadqiqotda aniqlanganidek, vizual faoliyat motivatsiyasi o'yin va ijodning uyg'unlashuvi natijasida paydo bo'ladi. Bu jarayonda bolaning erkin "tajriba o'tkazishi" uchun yaratilgan muhit uning o'zini-o'zi namoyon qilish ehtiyojini qondiradi.

Neyroestetika tamoyillarini ta'lim-tarbiya tizimiga, ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalariga tatbiq etish zarur. Bolalarda vizual diqqatni shakllantirishda milliy ornamentlar va ranglar mutanosibligidan foydalanish ularning kognitiv funksiyalarini (diqqat, xotira, tafakkur) yanada samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, neyroestetik yondashuv zamonaviy o'zbek psixologiyasida shaxs transformatsiyasini o'rganishning istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu sohadagi kelgusi tadqiqotlar san'at va fan integratsiyasi orqali inson ruhiyatini sog'lomlashtirishning yangi metodologik asoslarini yaratishga imkon beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Zeki S. Inner Vision: An Exoloration of Art and the Brain. Oxsford University press.
2. Ramachandran V.S. and Hirstein W. The Science of art: A Neurological theory of Aesthetic Experience. Journal of Consciousness stadies 6. 1999 15-51 p.
3. Salahidinova, X. (2024). The importance of drawing in the mental development of preschool children. «ACTA NUUZ», 1(1.8), 160-162.
4. Haliljonovna, Salakhidinova K. "Psychological Possibilities OF Forming Interests in Visual ARTS in Preschool Children." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, vol. 12, no. 3, 27 Mar. 2024, pp. 438-442.
5. Salakhidinova, K. (2024). Psychological Features of the Formation of Fine Arts Motives in Preschool Children. SPAST Reports, 1(1).
6. Salaxidinova, X. (2025). The formation of interest in drawing in preschool children as a developmental factor. «ACTA NUUZ», 1(1.6. 1), 144-146.
7. Salahidinova, H. (2021). Motivation problem in preschool children. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 147-150).